

TIJORAT BANKLARIDA XALQARO PUL O'TKAZMALARI, ULARNING HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH

Zaripov Sardor Ikrom o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Bank-Moliya Akademiyasi Banking mutaxassisligi magistranti.

Zaripovs2000@icloud.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15367719>

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada tijorat banklarining xalqaro pul o'tkazmalari bo'yicha moliyaviy operatsiyalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish, ularni tahlil qilish va samarali auditini tashkil etish bo'yicha mayjud holat chuqur o'rganilgan. Xususan, xalqaro pul o'tkazmalari hajmining yildan-yilga oshib borayotgani, raqamli moliyaviy texnologiyalar (fintex), onlayn to'lov tizimlari va elektron bank xizmatlarining kengayishi fonida banklar uchun ushbu operatsiyalarни aniqlik, tezlik va xavfsizlik talablariga muvofiq boshqarish dolzarb masalalardan biri sifatida ko'rildi.

Maqolada banklar tomonidan SWIFT tizimi, ISO 20022 xabar almashinuvi standarti, blokcheyn texnologiyalari va avtomatlashtirilgan komplayens nazorati kabi ilg'or yondashuvlarni joriy etish orqali xalqaro pul o'tkazmalarining hisob va audit jarayonlarini yanada takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ilgari surilgan. Ushbu ilmiy ish bank-moliya sohasidagi mutaxassislar, buxgalterlar, auditorlar va regulyatorlar uchun nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega bo'lib, moliyaviy shaffoflikni oshirish va tavakkalchiliklarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Tijorat banklari, xalqaro pul o'tkazmalari, buxgalteriya hisobi, bank auditi, SWIFT tizimi, valyuta operatsiyalari, ichki nazorat, komplayens, KYC, AML, moliyaviy monitoring, audit standartlari, raqamli bank xizmatlari, FATF, ISO 20022.

IMPROVING INTERNATIONAL MONEY TRANSFERS, THEIR ACCOUNTING AND AUDITING IN COMMERCIAL BANKS

Abstract. This scientific article deeply studies the current state of accounting, analysis and effective audit of financial transactions of commercial banks on international money transfers. In particular, against the backdrop of the annual increase in the volume of international money transfers, the expansion of digital financial technologies (fintex), online payment systems and electronic banking services, managing these transactions in accordance with the requirements of accuracy, speed and security is considered one of the urgent issues for banks.

The article puts forward practical proposals for further improving the accounting and audit processes of international money transfers by introducing advanced approaches such as the SWIFT system, ISO 20022 messaging standard, blockchain technologies and automated compliance control. This scientific work is of theoretical and practical importance for specialists in the field of banking and finance, accountants, auditors and regulators, and serves to increase financial transparency and reduce risks.

Keywords: Commercial banks, international money transfers, accounting, bank audit, SWIFT system, currency operations, internal control, compliance, KYC, AML, financial monitoring, audit standards, digital banking services, FATF, ISO 20022.

Kirish

Bugungi globallashuv sharoitida xalqaro moliyaviy munosabatlarning chuqurlashuvi, transchegaraviy to‘lovlar hajmining ortishi va migratsiya oqimlarining kengayishi fonida tijorat banklari faoliyatida xalqaro pul o‘tkazmalari muhim o‘rin egallamoqda. Ayniqsa, xorijdagi mehnat migrantlarining o‘z yurtiga yuborayotgan mablag‘lari, xalqaro savdo va xizmatlar uchun to‘lovlar, investitsiyalar va moliyaviy yordamlar bank tizimi orqali o‘tkazilishi O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun strategik ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro pul o‘tkazmalari banklar uchun foydali operatsiyalar bo‘lishi bilan birga, ularga xos bo‘lgan valyuta tavakkalchiligi, moliyaviy monitoring, shubhali operatsiyalarni aniqlash va audit jarayonlarining murakkabligi bank tizimida nazorat va hisob yuritish tizimlarining takomillashtirishini taqozo etadi. Ushbu operatsiyalarning shaffof, tezkor va ishonchli tarzda amalga oshirilishi, ularni hisobga olish va auditdan o‘tkazish tizimining xalqaro standartlarga mosligi nafaqat bank ishonchlilagini, balki butun moliya tizimi barqarorligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Shu munosabat bilan, ushbu maqolada O‘zbekiston tijorat banklarida xalqaro pul o‘tkazmalari bo‘yicha hisob va audit tizimlarining amaldagi holati tahlil qilinadi, xorijiy ilg‘or tajriba o‘rganiladi hamda milliy tizimni takomillashtirish bo‘yicha aniq va asoslangan takliflar ishlab chiqiladi.

Metodologiya: Mazkur tadqiqotda xalqaro pul o‘tkazmalarining tijorat banklari buxgalteriya hisobida aks ettirilishi va audit jarayonlari tahlil etildi. Tadqiqot davomida ilmiy yondashuvlar sifatida tizimli tahlil, taqqoslov usuli, statistik tahlil, normativ-huquqiy tahlil hamda amaliy kuzatishlar qo‘llanildi. Xususan, banklar tomonidan xalqaro o‘tkazmalarni rasmiylashtirishda qo‘llaniladigan SWIFT tizimi, valyuta ayriboshlash kurslari asosida hisob yuritish, shubhali operatsiyalarni aniqlash bo‘yicha audit hujjatlari tahlil qilindi.

Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ma’lumotlari, tijorat banklarining ochiq moliyaviy hisobotlari, xalqaro audit standartlari (IAASB, FATF, Basel komiteti tavsiyalari) asosiy manba sifatida foydalananildi. Shuningdek, ilg‘or xorijiy mamlakatlar, jumladan AQSH, Singapur va Germaniya bank tizimlarida xalqaro pul o‘tkazmalarini hisobga olish va ularni audit qilish bo‘yicha amaliyotlar solishtirildi.

Maqolada sifat va miqdoriy yondashuvlar uyg‘un ravishda qo‘llanilib, xalqaro pul o‘tkazmalari bo‘yicha mavjud kamchiliklarni aniqlash va takomillashtirish bo‘yicha asosli takliflar ishlab chiqildi. Tadqiqotda shuningdek, komplayens, KYC, AML tizimlari, audit izlari va raqamli texnologiyalar asosida ishlovchi monitoring tizimlari tahlil qilindi.

Metodologiya bo‘limi orqali maqolada muammolarning ildiziga tushish, ularni chuqur tahlil qilish va ilmiy asoslangan xulosalarga kelish imkoniyati yaratildi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi: Tijorat banklarining xalqaro pul o‘tkazmalarini bo‘yicha faoliyati, ularning buxgalteriya hisobi va auditini tashkil etish masalalari so‘nggi yillarda iqtisodiy fanlar doirasida alohida ilmiy e’tibor markaziga aylangan. Ushbu yo‘nalishda mahalliy va xorijiy mualliflar tomonidan turli yondashuvlar asosida tadqiqotlar olib borilgan.

O‘zbekiston olimlaridan professor A. Karimovning “Audit va ichki nazorat asoslari” (2023) nomli asarida banklar faoliyatida audit jarayonlarini tashkil etishning nazariy asoslari va xalqaro talablar bilan uyg‘unlashtirish muhimligi haqida fikr yuritilgan.

Muallif ayniqsa, xalqaro moliyaviy operatsiyalarda ichki auditning ahamiyatini kuchli ta'kidlab, KYC va AML tizimlari ustida alohida to'xtaladi.

Markaziy bank tomonidan chiqarilgan rasmiy ma'lumotlar, jumladan CBU.uz orqali berilgan tahliliy hisobotlarda xalqaro pul o'tkazmalarining hajmi, ularning iqtisodiyotga ta'siri va tijorat banklari o'rtaida bu xizmatlar bo'yicha raqobat holati yoritilgan. Bu ma'lumotlar maqola uchun asosiy statistik asos bo'lib xizmat qildi.

Xalqaro miqyosda esa, FATF (Financial Action Task Force) tomonidan e'lon qilingan xalqaro tavsiyalar xalqaro pul o'tkazmalari jarayonida noqonuniy mablag'lar aylanishining oldini olish, shubhali operatsiyalarni nazorat qilish va audit izlarini saqlash bo'yicha muhim metodik manba hisoblanadi. Xususan, FATF 40 tavsiyasi (FATF 40 Recommendations) banklarga xalqaro darajadagi komplayens talablarini joriy etishni taqozo etadi.

Shuningdek, Basel komitetining bank nazorati bo'yicha prinsipial hujjatlari, SWIFT Annual Report va World Bank Remittance Flows Report kabi xalqaro manbalar xalqaro pul o'tkazmalarining texnologik asoslari, xavfsizlik masalalari va ularni boshqarish strategiyalarini yoritadi.

Yana bir muhim manba sifatida, ISO 20022 – xalqaro moliyaviy xabar almashinushi standarti hisoblanadi. Bu standart xalqaro pul o'tkazmalarida hisob yuritish va avtomatik audit loglarini yaratishda zamонави yechimlar taklif qiladi.

Xulosa qilib aytganda, mavzuga oid adabiyotlar xalqaro pul o'tkazmalarining faqat texnik va moliyaviy jihatlarigagina emas, balki ularning shaffofligi, nazoratga olinishi va audit nuqtayi nazaridan ham muhim metodik va amaliy ko'rsatmalarga boydir. Ushbu manbalar asosida maqolada xalqaro va milliy amaliyotlar solishtirilib, dolzarb muammolar asosli tahlil etildi.

Tahlil va natijalar

Tijorat banklarining xalqaro pul o'tkazmalari bo'yicha faoliyati bugungi raqamli iqtisodiyotda muhim moliyaviy yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda. Raqamlı texnologiyalar, global moliyaviy tarmoqlar va yuridik talablarning uyg'unlashuvni ushbu jarayonlarda yuqori aniqlik, tezlik va xavfsizlikni taqozo etadi. Ayniqsa, xalqaro o'tkazmalar orqali noqonuniy mablag'lar aylanishi, valyuta spekulyatsiyalari va texnik xatolarning oldini olish bugungi kunning dolzarb muammosidir.

O'zbekiston Markaziy banking 2023-yilgi hisobotiga ko'ra, fuqarolar tomonidan amalga oshirilgan xalqaro pul o'tkazmalarini hajmi 10,6 milliard AQSH dollarini tashkil qilgan bo'lib, bu 2020-yildagi ko'rsatkichga nisbatan 35 foizga ko'pdır. Ushbu raqamlar xalqaro moliyaviy oqimlarning o'sib borayotganini va tijorat banklari zimmasidagi mas'uliyatning ortayotganini ko'rsatadi.

Shunga qaramasdan, tahlillar shuni ko'rsatadiki, mamlakatdagi ko'plab tijorat banklarida xalqaro pul o'tkazmalari bo'yicha buxgalteriya hisobi to'liq avtomatlashtirilmagan. Aksariyat banklar SWIFT tizimidan foydalanishsa-da, ushbu tizim orqali o'tkazmalarni real vaqt rejimida auditdan o'tkazish imkoniyatlari cheklangan. Buxgalteriyada valyuta kurslari asosida yuritiladigan hisoblar kurs tafovutlari tufayli muvozanatsizlikka olib kelmoqda.

Banklardagi komplayens bo'limlari (ya'ni qonun va qoidalar asosida muvofiqlikni ta'minlovchi tuzilmalar) faoliyat yuritayotgan bo'lsa-da, ularning texnik va intellektual salohiyati xorijiy mezonlarga mos kelmaydi.

Misol uchun, AQSHda xalqaro o'tkazmalarni real vaqtida tahlil qiluvchi sun'iy intellekt tizimlari qo'llanilsa, O'zbekistonda bu tizimlar hali keng joriy qilinmagan.


1-jadval

O'zbekiston Respublikasiga xalqaro pul o'tkazmalari statistikasi (2020–2024 yillar)

Yil	Remittanslar hajmi (mlrd. AQSH dollari)	YAIMga nisbatan ulushi (%)	O'sish sur'ati (%)	Izoh
2020	7,85	11,65	–	Pandemiya davrida pasayish
2021	8,92	12,3	+13,6	Tiklanish va migratsiya oqimi ortishi
2022	9,67	12,8	+8,4	Raqamli tizimlar joriy etilishi
2023	10,6	13,2	+9,6	SWIFT tizimi va texnologik yangilanishlar
2024	14,8	17,8	+39,6	Mehnat migratsiyasi va iqtisodiy omillar ta'siri

Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (www.cbu.uz)

Tahlil davomida aniqlanishicha, ko'plab banklarda ichki audit faqat tanlab olingan tranzaksiyalarni tekshiradi, bu esa risklarni erta aniqlash imkoniyatlarini cheklaydi. Auditorlik hujjatlari to'liq standartlarga muvofiq emasligi, shubhali operatsiyalarni avtomatik tarzda aniqlash tizimlarining (AML – Anti-Money Laundering) yetarli darajada ishlamasligi mavjud xatolarga sabab bo'lmoqda.



1-rasm Pul bozordagi oreratsiyalarning muddati bo'yicha ulushi

Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Xalqaro tajribani tahlil qilish orqali shuni aytish mumkinki, Yevropa va Osiyo mamlakatlarining yetakchi banklari xalqaro o'tkazmalarni blokcheyn texnologiyalari, real-time monitoring, va risk-skoring tizimlari orqali kuzatmoqda.

Bunday yondashuvlar nafaqat aniqlikni ta'minlaydi, balki auditga tayyor real vaqtli hisobotlarni ham avtomatik yaratishga yordam beradi.

Tahlil natijalari asosida quyidagi muammolar ajratib ko'rsatildi:

- ✓ Xalqaro pul o'tkazmalari bo'yicha hisob tizimi ko'plab banklarda to'liq integratsiyalashmagan;
- ✓ Audit jarayonlari xalqaro standartlarga to'liq mos emas, ayrim auditorlik amaliyotlari eskicha qolmoqda;
- ✓ Komplayens bo'limlarining texnik va metodik ta'minoti zaif, zamonaviy AML tizimlari to'liq ishlamayapti;
- ✓ Sun'iy intellekt va blokcheyn texnologiyalaridan foydalanish darajasi past.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish orqali tijorat banklarining xalqaro pul o'tkazmalari bo'yicha ishonchliligi va shaffofligini oshirish, ichki nazorat va audit tizimlarini takomillashtirish mumkin. Bu esa bank tizimi barqarorligiga bevosita ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

Muhokama

Tijorat banklarining xalqaro pul o'tkazmalari bilan bog'liq faoliyatini samarali boshqarish, buxgalteriya hisobi va audit tizimini takomillashtirish bugungi kunda moliyaviy xavfsizlik va xalqaro ishonchni ta'minlashda asosiy omillardan biri hisoblanadi. O'zbekiston tijorat banklarida xalqaro to'lovlar hajmining oshib borayotganiga qaramay, mavjud amaliyotlar hali ham to'liq avtomatlashtirilmagan, bu esa turli xatolarga, ortiqcha vaqt sarfiga va shubhali operatsiyalarning e'tibordan chetda qolishiga olib kelmoqda.

Muhokama jarayonida, eng avvalo, xalqaro pul o'tkazmalarini hisobga olishdagi kamchiliklar diqqat markaziga olinishi lozim. Hozirgi vaqtida ko'plab banklarda valyuta kurslari asosida amalga oshiriladigan buxgalteriya yozuvlari valyuta farqlari sababli moliyaviy hisobotda nomuvofiqliklar keltirib chiqarmoqda. Ayniqsa, turli valyutalarda o'tkaziladigan tranzaksiyalar bo'yicha vaqtinchalik tafovutlar (timing differences) aniqlikni pasaytiradi. Bu holat audit tekshiruvlarida ziddiyatlari vaziyatlarni yuzaga keltiradi.

Komplayens tizimlarining zaifligi esa banklar faoliyatini xalqaro standartlarga mos yuritishda jiddiy to'siq bo'lmoqda. Shubhali operatsiyalarni aniqlovchi tizimlar (AML) va mijozni tanib olish tizimlari (KYC) ko'pincha yuzaki yuritiladi yoki inson omiliga haddan ortiq bog'liq bo'lib qolmoqda. Hozirgi raqamli dunyoda esa ushbu jarayonlar to'liq avtomatlashtirilgan, tezkor va integratsiyalashgan bo'lishi zarur.

Muhokama doirasida xalqaro tajribalarni tahlil qilish orqali, O'zbekiston bank sektorida joriy etilishi lozim bo'lgan texnologik va metodik yondashuvlar aniqlab olindi. Masalan, Yevropa va AQSH banklarida sun'iy intellekt, real vaqt monitoring va blokcheyn texnologiyalari asosida ishlovchi tizimlar orqali nafaqat buxgalteriya hisobi, balki audit jarayonlari ham avtomatik tarzda yuritiladi. Bu esa inson omili ta'sirini kamaytiradi, xatoliklar darajasini pasaytiradi va muvofiqlikni oshiradi.

Shuningdek, ichki audit xizmatining samaradorligi ham jiddiy muhokama etilishi lozim.

Aksariyat hollarda audit faqat tanlab olingan operatsiyalarni tekshiradi, bu esa real xavf manbalarini e'tibordan chetda qoldirishga olib keladi. Hozirda xalqaro standartlar (IAASB, IIA) ichki nazorat tizimining har bir moliyaviy operatsiyani izchil kuzatib borishini talab etadi.

Shu sababli O‘zbekiston banklarida ham bu standartlarga asoslangan, uzlusiz audit modelini yaratish muhim ahamiyatga ega.

Muhokamada yana bir muhim jihat – xalqaro o‘tkazmalarning iqtisodiyotga ta’siri va ular orqali kirib keladigan mablag‘lar ustidan samarali nazoratni kuchaytirish zaruriyati hisoblanadi.

Masalan, O‘zbekistonga xorijda mehnat qilayotgan fuqarolar tomonidan yuborilayotgan pul mablag‘lari ko‘plab oilalarning asosiy daromad manbai bo‘lib, ularni izchil tahlil qilish orqali mamlakat ichki moliyaviy barqarorligini oshirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro pul o‘tkazmalari bilan bog‘liq jarayonlar nafaqat banklar uchun daromad manbai, balki ularning ishonchliligi, xalqaro imiji va moliyaviy xavfsizligi uchun ham hal qiluvchi omildir.

Bu sohada zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, audit va nazorat tizimlarini kuchaytirish, shuningdek, xalqaro tajribalarga asoslangan yondashuvlarni qo‘llash orqali O‘zbekiston bank tizimini yangi bosqichga olib chiqish mumkin.

Xulosa

Xalqaro pul o‘tkazmalari – bu zamonaviy moliyaviy tizimning ajralmas qismi bo‘lib, tijorat banklari orqali amalga oshiriladigan bu jarayonlar mamlakatning iqtisodiy barqarorligi, xorijiy investitsiyalar oqimi va aholi daromadlarini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekiston bank sektorida xalqaro pul o‘tkazmalari hajmi yildan-yilga ortib borayotgan bir paytda, ushbu operatsiyalarni hisobga olish, tahlil qilish va samarali auditdan o‘tkazish tizimlarini takomillashtirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, mavjud buxgalteriya tizimlari, ichki audit amaliyotlari va komplayens nazorati tizimlari zamonaviy xalqaro standartlarga to‘liq mos emas. Hisob yuritishdagi kurs tafovutlari, kechiktirilgan tranzaksiyalar, inson omiliga haddan tashqari bog‘liqlik va real vaqt monitoringining yo‘qligi xalqaro operatsiyalarning aniqligiga va ishonchliligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, audit hujjatlari va ichki nazorat tizimi xalqaro moliyaviy axborot standartlariga (IAASB, IIA, ISO 20022) to‘liq moslashtirilmagan.

Muhim jihatlardan biri shuki, xorijiy mamlakatlar bank amaliyotida sun’iy intellekt, blokcheyn, avtomatik risk-skoring va real-time audit kabi ilg‘or texnologiyalar keng qo‘llanilmoqda.

O‘zbekistonda esa bu kabi innovatsiyalar hali to‘laqonli joriy etilmagan. Natijada, xalqaro pul o‘tkazmalarining xavfsizligi, shaffofligi va qonunchilikka muvofiqligi bo‘yicha zaif jihatlar mavjud.

Tadqiqot natijasida quyidagi asosiy xulosalar va takliflar ishlab chiqildi:

- ✓ Xalqaro pul o‘tkazmalari bo‘yicha hisob tizimini SWIFT va ISO 20022 bilan to‘liq integratsiyalash zarur;
- ✓ Komplayens va AML tizimlarini raqamli yechimlar asosida modernizatsiya qilish lozim;
- ✓ Ichki audit xizmatlari xalqaro standartlar asosida qayta shakllantirilmog‘i kerak;
- ✓ Shubhali operatsiyalarni aniqlashda sun’iy intellekt va avtomatik signalizatsiya tizimlarini joriy etish samaradorlikni oshiradi;
- ✓ Xalqaro tajribaga asoslangan ilg‘or texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy etish orqali bank tizimining global moliyaviy muhitga integratsiyalashuvini tezlashtirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro pul o'tkazmalari sohasi O'zbekiston bank sektorining strategik yo'naliishlaridan biri bo'lib, bu sohada axborot texnologiyalariga asoslangan innovatsion yondashuvlar va sifatli audit tizimining joriy etilishi moliyaviy shaffoflik va barqaror rivojlanishning muhim omiliga aylanadi.

Kelgusida bu yo'naliishda kompleks islohotlarni amalga oshirish nafaqat banklar samaradorligini oshiradi, balki mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Karimov, A. (2023). Audit va ichki nazorat asoslari. Toshkent: "Ilm Ziyo" nashriyoti.
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2023). Moliyaviy ko'rsatkichlar bo'yicha rasmiy hisobotlar. [Online] Available at: <https://cbu.uz>
3. FATF. (2023). The FATF Recommendations. [Online] Available at: <https://www.fatf-gafi.org>
4. Basel Committee on Banking Supervision. (2022). Sound Practices for the Management of Operational Risk. BIS.
5. SWIFT. (2022). Annual Review 2022. [Online] Available at: <https://www.swift.com>
6. ISO. (2022). ISO 20022 Financial Services – Universal Financial Industry Message Scheme. [Online] Available at: <https://www.iso.org>
7. World Bank. (2023). Migration and Development Brief 38: Remittances Trends and Outlook. [Online] Available at: <https://www.worldbank.org>
8. IIA. (2022). International Standards for the Professional Practice of Internal Auditing (IPPF). The Institute of Internal Auditors.
9. Tadjibayeva, R. (2021). Moliyaviy menejment asoslari. Toshkent: O'zbekiston iqtisodiyoti nashriyoti.
10. IMF. (2022). Financial Soundness Indicators Compilation Guide. Washington: International Monetary Fund.
11. OECD. (2021). Digitalisation and Finance: Opportunities and Risks. Paris: OECD Publishing.
12. Deloitte. (2022). The Future of Internal Audit in a Digital World. [Online] Available at: <https://www2.deloitte.com>
13. PwC. (2022). Global Economic Crime and Fraud Survey. [Online] Available at: <https://www.pwc.com>
14. Central Bank of the Republic of Uzbekistan. (2023). Regulatory Guidelines on Foreign Exchange Operations. [Online] Available at: <https://cbu.uz>
15. ACCA. (2023). Audit and Assurance in Financial Institutions: Best Practices. [Online] Available at: <https://www.accaglobal.com>